

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JSTGA A'ZO BO'LISHINING HOZIRGI ISTIQBOLLARI

Abdullaeva Shaxnoza Erkinovna

(PhD), Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

To'rayev Temur Nazar o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Tashqi iqtisodiy faoliyat va turizm yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Resopublikamizni JSTga a'zo bo'lishi, uni yurtimiz rivojlanishidagi o'rni va istiqbollari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, O'zbekiston, Jeneva, siyosat, forum, transport, moliya, farmon.

Bugungi kunda barcha davlatlar barqaror iqtisodiy o'sishga erishishlarida Jahon Savdo Tashkilotining o'rni beqiyosdir. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham Jahon Savdo Tashkilotining teng huquqli a'zosi bo'lish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ammo olimlar va mutaxassislarni oylantirayotgan asosiy muammolardan biri - O'zbekiston Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishda yo'qotishlarga tayyor turishi va ularni minimallashtirishi.

JST Sekretariati Jeneva shahrida joylashgan va quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi: JSTni tashkil etuvchi ko'p tomonlama va har tomonlama bitmlarni boshqarish va amalga oshirish Ko'p tomonlama savdo muzokaralari uchun Forum Savdo bahslarini hal etib berish. Milliy savdo siyosatini nazorat etish va jahon iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishga jalb etilgan o'zga xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik.

Bugungi kunda Jahon savdo tashkiloti (JST) davlatlar o'rtasida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, hozirgi kunda jahondagi davlatlarining 164 tasi JST ga a'zo bo'lib, jahon tovar aylanmasining 98,0 foizi uning ulushiga to'g'ri kelgan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining 97,0 foizi JSTga a'zo mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Har bir davlatning bu tashkilotga a'zo bo'lish jarayoni o'rtacha 8 — 10, ba'zi davlatlar uchun esa 10 — 15 yilni tashkil etadi. O'zbekiston 1995-yilda ariza topshirgan bo'lishiga qaramasdan, faqat 2017-yildan boshlab, ijobiy siljish kuzatilyapti. Lekin ustuvor sohalarning boshqaruvi 30 yildirki, monopolistlarning qo'lida turibdi. Masalan, transport sohasida yagona aviakompaniya, temir yo'l kompaniyasi xohlagan narxini o'rnatadi, jamiyat, davlatchilik ular bilan samarali kurasha olmaydi. Bundan O'zbekiston iqtisodiyoti ko'p yildirki, aziyat chekmoqda. Shuni ham ta'kidlash lozimki, dunyoning eng katta iqtisodiyot egalari — AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari, Xitoy, Yaponiya kabi mamlakatlar JSTdan unumli foydalana oladi. Kichik davlatlar, jumladan, O'zbekiston ham bu imkoniyatlardan to'liq foydalana olmasligi ularning umumiy resurslariga borib taqaladi.

Mamlakatimizning JSTga a'zoli YEOIning tartib-qoidalarini va monopoliyasiga tushib qolmaslikning oldini oladi, deb hisoblaymiz. Ichki monopolistlardan qutulish muammosi hal bo'ladi. Xalqaro darajada erkin raqobat tizimi o'z-o'zidan yaratiladi. Mavzuni kengroq ochiq berishda mazkur tashkilotning tarixi va tarkibiy tuzilishiga alohida to'xtalib o'tish joiz. JSTga 1995-yil yanvarda asos solingan. 1994-yil 15-apreldagi Marokash deklaratsiyasida «uning natijalari jahon iqtisodiyotini mustahkamlaydi va butun dunyoda savdoni, investitsiyalarni kengaytirib, ishchi kuchi bandligi, daromadlarning o'sishiga olib keladi. Shuningdek, u jamoaviy bahslar, muzokaralar va taqdimlash orqali mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarini rivojlantiruvchi platforma hisoblanadi», deb yozib qo'yilgan. 1994-yildagi mahsulotlar savdosi haqidagi bitim, xizmatlar savdosi haqidagi bosh bitim, intellektual mulk haqidagi bitim Jahon savdo tashkilotining tarkibiy qismlariga kiradi. Mazkur hujjatlar a'zo mamlakatlarning parlamentlari tomonidan tasdiqlangan. 1995-yildan faoliyatini boshlagan bu tashkilotga ayni vaqtda a'zo bo'lgan 164 davlat uchun yangi bozorlar ochiq hisoblanadi. O'ndan ziyod turli yo'nalishdagi bitimlar uning normativ-huquqiy bazasini tashkil etyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida iqtisodiyotni liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiasini diversifikatsiya qilish alohida qayd etilgan bo'lib, O'zbekistonning JSTga a'zo davlat sifatida kirishi bo'yicha muzokaralarni olib borish bo'yicha vazifalar belgilanib berildi. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini istiqboli aynan shu jarayonga bog'liq.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishining obyektiv zarurlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning tashqi savdo hamkorlarining aksariyat qismi JSTga a'zo mamlakatlar ekanligi va bu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda O'zbekiston uchinchi davlat sifatida e'tirof etilishi, mamlakatimizdan eksport qilingan tovarlarga nisbatan yuqori boj stavkalari hamda notarif tartibga solish usullarining keng joriy etilishi mamlakat eksport salohiyatiga ta'sir etishi;

O'zbekiston Respublikasini xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etmasligi va shu sababli tashqi savdo munosabatlarida muntazam ravishda boshqa davlatlarning diskriminatsion siyosati qoidalariga duch kelishi kabilar.

Tashkilotga a'zo bo'lishning ijobiy jihatlari ko'p. Birinchidan, uning zamirida iqtisodiy manfaat turadi. Ya'ni to'siqlarsiz o'zaro mahsulot ayirboshlashga erishiladi va tovar ayirboshlanishi yuksak texnologiyalarning qo'llanilishi hamda rivojiga hissa qo'shadi. Ikkinchidan, xalqning turmush darajasini yaxshilashga turtki beradi, insonlarga sifatli mahsulot iste'mol qilish imkonini yaratadi. Uchinchidan, eksport qilinayotgan mahsulotlar hisobiga milliy mahsulotlar tannarxi tushirilishiga xizmat qiladi. To'rtinchidan, milliy ishlab chiqarish hajmini oshirib, byudjetga pul tushumlarini ko'paytiradi, savdo liberallashtiruvchi mamlakat va alohida vatandoshlarimizning daromadlarini oshiradi.

O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zo bo'lishi natijasida O'zbekiston qonunchilida kutilayotgan o'zgarishlarni tizimli tahlil qilish hamda xalqaro normalar bilan unifikatsiyalash kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini oladi hamda ortiqchi ovoragarchilikni cheklaydi. JST ga a'zo bo'lish natijasida O'zbekistonning xalqaro huquqiy ahvolidagi o'zgarishlar hamda boshqa mamlakatlar bilan bo'ladigan savdo-sotiq va boshqa turdagi munosabatlarda kutilayotgan o'zgarishlar O'zbekistonning hozirgi avholiga qay darajada ta'sir etishini tadqiq etish kutilayotgan muammolarni oldini olish va bartaraf etishni kafolatidir.

Birinchi, jahon bozoriga beg'araz kirish masalalarini o'rganish kerak. Mamlakatlar JSTga birinchi navbatda JSTning boshqa a'zolari bozorlariga kirish huquqini olish uchun qo'shilishadi, bundan tashqari ular tashkilotning barcha a'zolariga beradigan afzalliklaridan foydalanishi mumkin, masalan kamsitilmasdan savdo qilish. Ushbu afzallik chegaradagi savdo choralariga ham, mamlakat ichkarisiga ham tegishli. Birinchi holda, bu Jahon savdo tashkilotining barcha a'zolari uchun bir xil import tariflari va bojlari qo'llanilishini kafolatlaydigan va har qanday kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydigan eng ma'qul bo'lgan tamoyilga o'xshaydi. Holbuki, ikkinchisi, milliy rejim tamoyili, JSTning barcha a'zolarini import qilinadigan tovarlarga nisbatan milliy mahsulotga nisbatan bir xil tartibda qo'llashni majbur qiladi. Biroq, JSTga a'zo bo'lmagan mamlakatlarda chet el tovarlariga mahalliy mahsulotlarga nisbatan unchalik qulay sharoit berilmaydi. Shu sabablarga ko'ra, JSTga qo'shilmasdan, mamlakatlar eksporti ham tariflar, ham mahalliy tartibga solish nuqtai nazaridan unchalik qulay bo'lmagan munosabatga duch kelishi mumkin.

Ikkinchidan, X.S. Islomxo'jaev ta'kidlaganidek, JST o'z a'zolarini tashqi savdo bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni barcha a'zolarga taqdim etishni va rejalashtirilgan o'zgarishlar to'g'risida oldindan xabardor qilishni majbur qiladigan shaffoflik tamoyilini o'rnatish orqali bashorat qilinadigan savdo uchun shart-sharoitlar yaratishi mumkin. Keyinchalik, a'zolar rejalashtirilgan o'zgarishlarga moslashish uchun ma'lumotga ega bo'ladilar, bu esa savdo noaniqligi va a'zo davlatlar uchun xavflarni kamaytiradi. Savdolarning ochilishi, shuningdek, berilgan imtiyozlar bilan bir qatorda, ichki sanoatga zarar yetkazish xavfini tug'dirishi mumkin, chunki ichki bozor tashqi va ichki bozorlarda qattiq raqobatga duch kelishi mumkin.

JSTning asosiy printsiplari diskriminatsiyasiz savdo bo'lganligi sababli, uning barcha talablari adolatli xalqaro savdo muhiti uchun sharoit yaratishga qaratilgan. Ko'pgina mamlakatlar JSTga a'zo bo'lishiga nafaqat tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, balki ichki iqtisodiy islohotlarni rag'batlantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadi ham turtki bo'ladi. Umuman, JSTning asosiy vazifalari manfaatdor a'zo davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama savdo muzokaralarini o'tkazish, savdodagi nizolarni bartaraf etish, a'zo mamlakatlar milliy savdo siyosatini monitoring qilish, boshqa ixtisoslashgan xalqaro muassasalar bilan hamkorlik olib borishdan iborat. Bu kabi vazifa va tamoyillar, shubhasiz, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashga katta hissa qo'shishi aniq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Voxidova M.X. "Xalqaro iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida O`zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a`zo bo`lishi muammolari va istiqbollari" Xalqaro moliya va hisob. 2018
2. Xalqaro iqtisodiy huquq. Darslik. Mas'ul muxarrir prof. G.Yuldasheva. Mualliflar jamoasi. Toshkent:TDYuU nashriyoti, 2019, 186 bet. 3. Белов, В. А. Международное торговое право и право ВТО в 3 кн. Книга 2. Частноунифицированное международное торговое право : учебник для бакалавриата и магистратуры / В. А. Белов. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 426 с
4. Yuldoshev Tojiddin Abdulkarimovich, Urozov Fakhriddin Isokovich, & Shomurotov Ulugbek Melikmurodovich. (2023). Formation of Ideas About Marriage to Young People. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 18, 71–73. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3562>.
5. Yuldashev Tadjidin Abdulkarimovich; Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich. MEASURES TO ELIMINATE OR PREVENT THE MANIFESTATION OF PERSONALITY AGGRESSION OR AGGRESSION IN THE INDIVIDUAL. CZ 2022, 151-152.